

ILMIY MATNNING USLUBIY SHOXOBCHALARI

10.00.00- Filologiya fanlari

Umarova Dildora Mirzamurod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Umarovadildora466@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolda ilmiy matnning bir qancha uslubiy ko‘rinishlari ya’ni uslubiy shoxobchalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va bir-biridan ajralib turuvchi tomonlari xususida so‘z boradi. Ilmiy uslub F.Engelsning fikrlariga asoslangan holda yoritib berishga hrakat qilinadi. Hamda ilmiy-texnikaviy uslubning o‘ziga xos uslubiy shoxobchalari aniqlanib, ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy matn, uslubiy shoxobcha, ilmiy-texnikaviy uslub, ilmiy ish uslubi, ilmiy ommabop bayon etish, ilmiy uslub, ilmiy texnikaviy adabiyotlar, adabiy til.

STYLISTIC FEATURES OF SCIENTIFIC TEXTS

UDC: 10.00.00 – Philological Sciences

Umarova Dildora Mirzamurod qizi

Master’s student of Shahrisabz State Pedagogical Institute

Umarovadildora466@gmail.com

Annotation: This article discusses various stylistic features of scientific texts, specifically the stylistic branches, their distinctive characteristics, and the aspects that differentiate them from each other. The scientific style is explored based on the ideas of F. Engels. Additionally, the distinctive stylistic branches of the scientific-technical style are identified and scientifically justified.

Keywords: Scientific text, stylistic branch, scientific-technical style, scientific writing style, popular scientific presentation, scientific style, scientific-technical literature, literary language.

Ilmiy matn bir qancha uslubiy ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ular o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. F.Engelsning shu fikri asosida ilmiy uslubni, shu uslubga asoslangan fanlarning o‘ziga xos belgi-xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qiladi.

1.Ilmiy-texnikaviy uslub: bu qat’iy akademik bayon etish uslubidir. Uning tipik shakllari monografiyalar, ilmiy maqolalar, ma’ruzalar va tezislar holida namoyon bo‘ladi. Ilmiy-texnikaviy uslubni tashkil etuvchi muhim belgilarga ifoda etilayotgan

axborotning aniq-ravshanligi, bayonning qat'iy mantiqiy izchilligi, dalillashning ishoniruvchanligi, faol shaxsning yo'qligi, semantik tiniqlik va bir ma'nolilik, bo'yoqdor baholash elementlarning g'oyat oz miqdorda ekanligi kabilar kiradi.

2.Ilmiy ish uslubi: rasmiy ish qog'ozlari yuritishda ham qo'llaniladi. Ilmiy axborotni huquqiy, yuridik muhofaza qilish ham uning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ilmiy-rasmiy hujjatlar tiliga qat'iy talablar qo'yiladi. Ular ishonchli, dalillangan bo'lishidan tashqari, til vositalarining standartlashuvi, shtamlarning haddan ziyod ko'pligi, sintaktik konstruksiyalarning soddalashuvi bilan xarakterlanadi. Masalan;

Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti rektorati o'quv-metodik birlashma Attestatsion kengashiga o'zbek tili kafedrasi bo'yicha dotsentlik unvonini berish masalasini ko'rib chiqish uchun Po'latov Isroiljon Po'latovichning shaxsiy hujjalarini yuboradi.

Shaxsiy hujjatlar ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar ta'sis etish haqidagi ko'rsatmalar asosida rasmiylashtirilgan.

Ilova: I.Po'latovning 14 varaqdan iborat shaxsiy hujjatlari

Institut rektori: I.K.Sulaymonov

3.Ilmiy-ommabop bayon etish uslubi ilmiy-texnika axborotini hatto mutaxassis bo'lmaganlarga ham tushunarli tarzda bayon etish shaklidir. Uning asosiy vazifasi o'quvchini u yoki bu ilmiy bilimlar bilan tanishtirishdir.

Fan jamiyatda kamchilikni tashkil qiluvchi ma'lum guruh odamlarninggina ishi bo'lmay qoldi, tayanch-majburiy ta'limning joriy etilganligi, oliy ta'limning rivojlanishi, keng xalq ommasi orasida ijtimoiy, tabiiy-ilmiy va texnikaviy bilimlar keng tarqalayotganligi sababli, fan bilan yaqin bo'layotganlarning miqdori tobora ortib boryapti. Hozirgi vaqtda har bir kishi, u qaysi sohada band bo'lishidan qat'iy nazar, tabiat, jamiyat va inson to'g'risida oqilona va chuqur tasavvurlar beruvchi bilimlarga ehtiyoj sezadi. Bu esa ommaviy o'quvchi manfaatlarini ko'zda tutgan holda fanning turli tarmoqlariga taaluqli bilimlarni sodda va ommabop shaklda yetarlicha bayon qilib berishni talab qiladi.

Mutaxassislar bilan mutaxassis bo'lmagan kishilar o'rtasidagi muloqotni ta'minlashni ko'zda tutgan yangi kommunikativ vazifa ayni o'sha tip vositalarining o'zgacha strukturaviy tuzilishini taqozo etadi.

Ilmiy-ommabop bayon qilish, odatda, kishi diqqatini jalb qiluvchi ruhda, dalil va hodisalar izohi bu sohadan bexabar kishi uchun tushunarli shaklda bo'ladi. Shuning uchun ilmiy-ommabop uslubda, umuman, ilmiy prozadagidan farqli o'laroq, umumiylik bilan individuallik, ratsionallik bilan his-hayajon, neytrallik va bo'yoqdor-baholash faoliyati o'rtasida o'zgacha, yangi o'zaro munosabatlar yuzaga keladiki, natijada ilmiy-ommabop uslub badiiy adabiyot tipiga yaqin kelib qoladi.

Ilmiy-texnika uslubining o'ziga xos uslubiy shoxobchalari mavjuddir. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) **o'quv-ilmiy uslubiy shoxobchasi** fan asoslarini tematik bayon qilishdan iborat bo'ladi, har xil misollar, taqqoslashlar va hokazolar uni ilova tarzida to'ldirish uchun xizmat qiladi;

b) **ilmiy-ommabop uslubiy shoxobchasi**. Bu uslubiy shoxobcha fanning ijtimoiy vazifasini belgilash, ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy natijalarini bayon qilish va olimlarning mas'uliyati kabi motivlar bilan bog'liq bo'ldi. Shunga ko'ra, bu uslubda yuksak ruh, fuqaro hissi barq urib turadi, unda o'ziga xos baholash mezonlari, his-hayajonli tusdagi so'zlar keng qo'llaniladi;

d) **ilmiy-memuar uslubiy shoxobchasi**. Bu uslubiy shoxobcha mavzu jihatidan tarixiy material bilan cheklangan bo'ladi (kashfiyotlar tarixi, olimlarning biografiyasi va hokazolar). Umumiy tavsifi jihatidan u badiiy bayon etish uslubiga o'xshab ketadi.

Ilmiy-texnika uslubining tasnif asoslari bular bilan cheklanmaydi, albatta. Ilmiy-texnik uslub va uning shoxobchalari yana boshqa kichik guruhlariga parchalanishi ham mumkin, chunonchi texnikaviy, tabiiy-ilmiy va ilmiy-gumanitar uslubiy shoxobchalar shular jumlasiga kiradi. Guruhlash yana davom etishi, unda har bir kichik shoxobchaning o'ziga xos metatiplari aniqlanadi: fizika, matematika, astronomiya fanlariga xos meta va mikrotiplari, ya'ni tabiiy-ilmiy metatip va mikrotip; huquqiy, iqtisod va boshqa fanlarning metatip va mikro tiplari, ya'ni ilmiy-gumanitar ilmiy uslubga xos metatip va mikrotip kabilar.

R.A.Budagov haqli ravishda qayd etganidek: "garchi tibbiyot xodimi o'z ilmiy asarlarini kimyogardan farqli bayon etsa-da, kimyogar esa biologdan, fiziologdan farqli uslubda bayon etsa-da, ... ularning barchasi (barcha olimlar) ilmiy bayon etish uslubdan mushtarak foydalangan holda ish ko'radilar. "Tibbiyot uslub", "matematika uslub" xususiyatlari esa ko'p jihatdan matematikaning, tibbiyot fanlarning o'ziga xosligiga taalluqli bo'lib, tilga bevosita tegishlidir". R.A.Budagov o'z fikrini davom ettirib, ayrim olingan fanda qo'llanilayotgan atamalarning muayyan miqdori o'ziga xos alohida bir uslubni tashkil eta olmasligini ta'kidlaydi.

Ilmiy axborotni tashkil etuvchi rang-barang janrlar jihatdan shartli ravishda quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin:

1. Yangi ma'lumotlar berish va ularning amaliyotda qo'llanishini izohlashni maqsad qilgan uslubiy (janriy) ko'rinish, unga ilmiy to'plamlarda e'lon qilingan maqolalar, dissertatsiyalar, monografiyalar va boshqalar kiradi.

2. Mavjud ta'limotlar va tajribani umumlashtirishga, qo'lga kiritilgan natijalarni sharhlab berishga qaratilgan uslubiy (janriy) ko'rinish. Unga ilmiy va texnikaviy jurnallardagi maqolar, broshyuralar, turli tarzdaga ma'ruza matnlari, ma'lumotnomalar va boshqalar kiradi.

3. Bayon etishning o'quv-bilish yo'nalishiga xos uslubiy (janriy) ko'rinish. Bunga darsliklar o'quv-qo'llanmalari va dasturlar, mashq va masalalar to'plamlari, konspektlar, o'quv-metodik materiallar, tavsifnomalar kiradi.

4. Texnikaviy va ishlab chiqarish maqsadlarini ko'zda tutuvchi uslubiy (janriy) ko'rinish. Bunga rasmiy hujjatlar, korxonalar uchun shartnoma va tavsiyanoma, sinovlar va tahlillar to'g'risida ma'lumotlar, savdo jadvallari, reklama va ma'lumotnomalar va boshqalar kiradi.

Ehtimol tutilgan bu matn tiplari mazmuni, kompozitsiyasi va lisoniy xususiyatlariga ko'ra bir xil emas. Shu bilan birga, ularni farqlovchi tafovutlar bilan bir qatorda, o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiy mazmun, umumiy struktura va mushtarak lisoniy imkoniyatlarga ega.

Tahlil natijalarini bayon etishdan avval, fikrimizcha, ba'zi metodologik asoslarni qayd etib o'tish zarurga o'xshaydi. Birinchi qayd fan tili tarkibida maxsus yordamchi nolisoniy kichik sistemalar mavjudligi bilan bog'liq:

1. Tabiiy umummilliy tilga nisbatan o'ziga xos alohida bo'lgan kichik sistema til matniga kiradigan, ammo bir xil ma'nodagi og'zaki shakliga ega bo'lmagan kichik sistema - grafiklar (jadvallar), chizmalar va boshqa elementlar.

2. Og'zaki shakli mavjud bo'lgan, biroq uni amalga oshirish mushkul bo'lgan kichik sistemalar ramziy matnlar (matematika, fizika va boshqa fanlarga doir);

3. Og'zaki shakli mavjudligi tamoyili ahamiyatga molik bo'lgan kichik sistemalar, chunonchi, kimyoviy elementlarning nomlari, matematik belgilar nomenklaturasi va hokazolar,

Ikkinchi qayd izohlash metodlariga oid har qanday funksional uslubning o'ziga xosligi miqdoriy tahlil metodlarini qo'llash, turli funksional uslublarning miqdoriy xususiyatlarini taqqoslab o'rganganda chuqurroq va to'laroq ochib beriladi.

Asr o'rtalaridayoq V.V.Vinogradov "badiiy adabiyotning turli uslub janrlarida turli so'z tiplarini qo'llab, chastotasi turlicha" ekanligini ta'kidlagan edi. Bu sohadagi aniq tadqiqotlar uslublar o'rtasidagi strukturaviy-grammatik va qisman matematik tafovutlarni izlab topishga yordam bergan bo'lar edi. "Barcha grammatik tushunchalarning tahlili, - deb yozgan edi u, - adabiy tilning turli uslublarida ularning nisbiy funksional salmog'ini aniqlashi lozim".

Statistik metodlarning qo'llanilishi, boshqa matematik metodlarning qo'llanilishida bo'lganidek, til materialini imkoni boricha aniq-ravshan izohlashga yordam beradi.

Lisoniy statistika metodlaridan foydalanilgan holda, ilmiy matn uslubini izohlash, so'ngra qayta ishlamagan statistik materialni sifat tomonidan baholash va boshqa vazifaviy uslublar (so'zlashuv, badiiy adabiyot uslublari) bilan taqqoslash nafaqat uslubiy parametrlarni bir xil ma'noda aniqlab olish, balki uslubiyat bo'yicha mashg'ulotlar uchun o'quv materialini obyektiv ravishda ajratib olish imkoniyatini

ham beradi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, lingvistika va metodika masalalarining ilmiy asoslangan holda hal etilishiga olib keladi.

Vazifaviy uslublar tadqiqotchisi **M.N.Kojina** haqli ta'kidlaydiki, "Qandaydir umuminsoniy, har yerda uchraydigan uslubiy me'yorlar mavjudligi haqidagi tasavvurlardan voz kechishi lozim. Shuni yodda tutish kerakki, umuman nutq, nutq har doim muayyandir, shu boisdan uslubiy tavsiyalar umumiy bo'lishi mumkin emas. Biror uslubni baholaganda ikkinchisining me'yorlaridan kelib chiqib bo'lmaydi. Til vositalarini qo'llash haqida gap ketganda, eng to'g'ri yondashuv vazifaviy yondashuv bo'ladi.

Ilmiy-texnikaviy adabiyotlar, asosan, rus tilida nashr qilinishi sababli, bu shoxobchani til qurilishi ham o'ta g'aliz. Gumanitar fanlarga oid adabiyotlar ko'p nashr etilishi sababli, uning til qurilishida ilmiy-texnikaviy adabiyotlar darajasida bo'lmasa-da, uslubiy g'alizliklar uchraydi.

Ilmiy uslub ko'p qamrovli tizim. U har xil farqli ko'rinishlarga ega. Ilmiy uslubga xos har xillik, eng avvalo, fan va uning tarmog'i bilan bog'lanadi. Xususan, matematika faniga xos ilmiy bayon bilan tilshunoslik yoxud pedagogika fanlariga xos ilmiy bayonni bir xil deb bo'lmaydi. Tilshunoslik yoxud pedagogika gumanitar-ijtimoiy fanlar guruhiga mansub bo'lsa, matematika aniq fanlarga daxldordir. Ijtimoiy fanlarga xos ilmiy bayonda aniq fanlar ilmiy bayoni uchun xos bo'lmagan xususiyatlarni ko'rish mumkin. Xususan, ijtimoiy fanlarga xos ilmiy bayonda bo'yoqdorlik, his-hayajon ham ma'lum darajada xos bo'lishi mumkin. Ilmiy-texnikaviy fanlarga xos ilmiy bayonda bo'yoqdorlik, his-hayajon mutlaqo xos emas. Bu shu fanlarning ilmiy bayoniga xos qonuniyatdir.

Ilmiy uslub shoxobchalaridan yana biri ilmiy-ommabop bayondir. Bu shoxobchada bayon hammaga qaratiladi, shu bois, u umumiy bayon uslubiga yaqin keladi. Ammo ilmiy-ommabop bayon orqali yangi kashfiyotlar, texnika yangiliklari haqida axborotlar beriladi. Hamma uchun tushunarli bu uslubning asosiy belgisi hisoblanadi. Masalan, matematika, kimyoga oid sof ilmiy maqola yoki monografiyaning tili ko'pchilikka tushunarli bo'lmaydi. Bunda maxsuslashgan atamalar ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan vositalar qo'llanadi.

Ilmiy-ommabop bayonda esa ayrim atamalarning ma'nosi, mohiyati doimo sharhlanib boriladi. Masalan, tetrotsiklin termini qorin og'rig'ini qoldiruvchi dori deb bayon etilsa, shaksiz ko'pchilik uni tushunadi. Uning ma'nosi ilmiy-ommabop bayondan boshqa bayonlarda (sof ilmiy bayonda) ko'pchilikka tushunarli bo'lmaydi, lekin uning ma'nosi qorin og'rig'ini qoldiruvchi dori. Uslublarni tasnif qilganda **L.V.Shcherbaning** rus tilining uslubiy resurslari haqidagi fikriga asoslanib, fikrimizcha, maqsadga muvofiqdir: Chunki adabiy til tushunchasi, u qaysi xalqniki bo'lishidan qat'iy nazar, mushtarak belgilarga ega bo'ladi. Adabiy til asosiy va bir qator qo'shimcha doiralardan tuzilgan bo'lishi lozimki, bundagi har bir tushuncha,

asosiy doirada bo'lganidek, xuddi o'sha tushunchalar mazmunini (ular mavjudligi bois) mujassamlashtirgan bo'lishi lozim, biroq ular u yoki bu qo'shimcha jihatga ega bo'ladilar, shuningdek, asosiy doirada bo'lmagan, ammo mazkur qo'shimcha jihatga ega bo'lgan tushunchalarning mazmunini mujassamlashtirgan bo'lishi lozim.

Birinchi doirani kitobiy va so'zlashuv uslublari tashkil etadi. Ikkinchi doiraga muomala sohalari bilan mutanosib uslublار-kitobiy nutqning vazifaviy uslublari rasmiy ish yuritish, ilmiy gazeta-publitsistik uslublار va so'zlashuv nutqining funksional uslublari: so'zlashuv-maishiy, adabiy-so'zlashuv, keng miqyosli uslublار kiradi. Uchinchi doiraga yozuv janrlari bilan odatda muvofiq keluvchi vazifaviy uslublarning kichik uslub podstillari rasmiy hukumat va diplomatik hujjatlar, vaqtli matbuot, reklama asarlari va boshqa xil kichik uslublار (janr) lar kiradi.

Adabiy tilning ko'pchilik mutaxassislar tomonidan vazifaviy xususiyati inkor etilgan yana bir uslubi ham borki, barcha uslublarga xos lisoniy xususiyatlarni qamrab oladi, mukammal va har tomonlama izohlashni talab etadi. Bu uslub tilning boshqa barcha vazifalarini inkor etilgan holda o'ziga xos alohida (maxsus) vazifani bajaradi.

R.A.Budagov vazifaviy uslublarning bunday bo'linishni tan olmaydi, "ilmiy uslub yaxliti" degan fikrda qat'iy turadi.

O'zbek adabiy tili doirasida ilmiy uslubning ilmiy-texnika va ilmiy hujjatlar shoxobchasi rivojlanmagan. Chunki ilmiy uslubning bunday shoxobchalari rus tili orqali olib borilgan. Adabiy tilimizning kam qo'llanishiga ham ana shu ikki shoxobchani ta'siri katta. Chunonchi, ilmiy-texnik adabiyotlar, asosan, rus tilida chop etiladi. O'zbek tilida yozilsa, uning o'quvchisi kam bo'lib qoladi degan andisha bahona bo'lgandi, bizningcha, aniq va tabiiy fanlarga oid barcha darslik va qo'llanmalardan tashqari, jurnallar ham chiqarish kerak. Shunda o'zbek tilining texnika uslubi ham yuzaga kelib, silliqlashgan bo'lardi. Bu terminologiya jabhasida o'z isbotini topgan. Masalan: **A.Mirvaliyev**ning ko'rsatishicha, kimyo terminlarining 91% rus tilidan olinan. Iste'molda bo'lgan avvalgi atamalar terminologik tizimdan chiqarilgan. Texnikaga oid, qurilishga oid ruscha birgina "balka" termini o'zbek tilida xari, vassa kabi jami 13 ta atama bilan berilishi mumkin.

Ilmiy-texnikaviy adabiyotlar rus tilida nashr qilinganligi sababli, bu uslubiy shoxobchani lisoniy tuzilishi ham nihoyatda g'alizdir.

Nutqning vazifaviy turlariga xos uslubiy xususiyatlar masalasini tadqiq etish uzoq an'analarga ega. U vazifaviy uslublار orasida ilmiy matnning xususiyatlari g'oyat keng miqyosga ega. Ular qatoriga mantiqiylik, obyektivlik, qisqalik, lo'ndalik, shaxssizlik, nobo'yoqdorlik, intellektuallik va hatto bayon etishning "hammaga ham tushunarli bo'lmashligi" singari xususiyatlarini kiritish mumkin. Biroq ilmiy matnning o'ziga xos belgilari bahsli, munozarali masala bo'lib qolayotir. Ilmiy tafakkurning tahlilidan kelib chiqib, M.N.Kojina ilmiy matnning asosiy uslubiy xususiyatlariga

mavhumlik, umumlashganlik va maxsus vositalar yordamida kuchaytirilgan mantiqiylikni kiritadi.

Mavhumiylilikni va umumlashtirish boshqa vazifaviy uslublar uchun xos emas, u ilmiy matnning o'ziga xos belgisidir. Zotan, u boshqa uslublarda nolisoniy asoslarga ega emas.

Mantiqiylik nutqning barcha uslublari uchun xosdir. Buningsiz shakllisoniy birliklar zanjiri-obyektiv borliq va uning narsa-hodisalari munosabati bilan mutanosib bog'liqlikka ega bo'lmaydi. Ayniqsa, mantiqiylik ilmiy matn uslubi va uning barcha shoxobchalari (podstillari) uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi "component" - organik qism hisoblanadi. Ilmiy matn uslubiga xos mantiqiylik qat'iy, izchil, maxsus vositalar bilan kuchaytirilgan, xoslangan tarzda ifodalanadi.

Mavhumiylilik va umumlashtirish ilmiy matnning asosiy belgisi sifatida mazkur uslubning (ilmiy uslub) tafakkur shakliga naqadar bog'liqligini ham namoyon etadi. Bunday jarayonda ilmiy uslub barcha elementlarini bir butun qilib biriktirib turuvchi "ip"ga aylanadi, ularning o'zaro aloqasini "gorizontali"ga ham, "vertikali"ga ham ta'minlaydi. Til tizimidagi hamma va har qanday vositalarni emas, balki mazkur muloqotga ko'maklashuvchi vositalarninggina tanlab olinishi shu bilan taqozo etadi. Shu bois mazkur struktura xususiyatini belgilab beruvchi muayyan nolisoniy omillar negizida ularning o'zaro aloqasi yuzaga keladi. Nutqning vazifaviy uslubi muayyan tarzda uslubiy qiyofaga kirgan til birikmalarining o'zaro aloqasigina bo'lib qolmay, u elementlari bir-biri bilan vazifaviy ravishda bog'lanib bir butunlikni tashkil etuvchi yagona uyushma ham hisoblanadi, ya'ni ular bir-biri bilan biror muayyan vazifani bajarish zahirida birlashib yaxlit holda aniq kommunikativ vazifani bajarishga xoslanadi. Til uslubining matnning ma'lum ko'rinishiga xos strukturalari ichki elementlarining o'zaro bog'lanishigina tashkil etib qolmay, mazkur strukturani taqozo etuvchi nolisoniy omillar bilan ham aloqador bo'ladi.

Ilmiy matnga xos gaplarning kesimlari kelasi zamon fe'llari bilan ifodalanadi. Bunday shakldagi kesimlar ham odatda umumzamon ma'nosiga ega bo'ladi. Gapning kesimi ot-kesim tavsifida bo'lganda, u kelasi zamon shaklidagi bog'lamani qabul qiladi. Masalan: *Odatda yakka qolgan nuklonlarning o'rtacha kinetik energiyasi taqriban deytron boshlang'ich energiyasining yarmiga teng bo'ladi.* (**Bekjonov R. O'sha asar. 156-b.)**

Bu chekli limitning mavjudligi A (ye) to'plamning kompaktiligini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida A operatorining batamom uzliksiz ekanligini isbotlaydi. (**Qobulov V.Q. O'sha asar, 213- b.)**

Haqiqiy sonlar ustidagi boshqa amallar ham kesimlar yordamida shunga o'xshash aniqlanadi (**Qobulov V.Q. O'sha asar, 45- b.)**

Keltirilgan parchalarning birinchisida kesim ot-kesim tavsifida: ... teng bo'ladi. Undagi zamon (kelasi) ma'nosi bo'ladi so'zi orqali ifodalangan bog'lama orqali ifodalangan.

Kelasi zamon fe'li orqali ifodalangan kesimlar voqea-hodisalarning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi, ularning o'zaro aloqadorligini aks ettiradi, shu sababli bunday kesimlar ko'pincha voqea-hodisa shart-sharoiti yoki sabab-oqibati ma'nolari ifodalangan matnlarda qo'llaniladi. Masalan: *Tajriba shuni ko'rsatadiki, hamma hollarda ham (1,12) algebraik tenglamalar sistemasini yechish mumkin bo'lavermaydi. Berilgan differensial tenglamaning o'ng tomoni (x) funksiya, boshlang'ich hamda chegaraviy shartlarni umumiy terminga birlashtirib, boshlang'ich ma'lumotlar deb ataylik. Bularni chekli ayirmali holga o'tkazishda ma'lum xatolikka yo'l qo'yiladi, bundan tashqari tenglamalarning yechish jarayonida ham, yaxlitlash hisobiga ham xatoga yo'l qo'yiladi. Agar chekli ayirmali tenglamani yechish jarayonida yuqorida ko'rsatilgan xatolar kamayib borsa yoki o'smasa, bunday ayirmali sxema turg'un sxema deb ataladi. (Qobulov V.K. O'sha asar, 253-b.)*

Funksiyalar uslub hosil qiluvchi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi, chunki matnning uslubiy-struktural tashkil topganganligi, tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan tip sistemasining nutqiy funksional "qo'shimchasi" o'z navbatida ekstralingvistiklikdan tashqarida ochib berilishi mumkin emas. Ekstralingvistik omillar har qanday nutq uslubida katta ahamiyat kasb etadi. U ayniqsa ilmiy matnda katta imkoniyatga ega. Bu R.Dollejel tomonidan ham to'g'ri e'tirof etilgan. Uning yozishicha, ekstralingvistik omillarsiz uslubiyat nazariyasini eng oddiy darajada ham tasavvur etib bo'lmaydi, chunki uslubiyat til- ishora (qayd)larining pragmatik tomonini tashkil etuvchi fandır.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov S.A.O'zbek tilining badiiy uslubi. filol.fan.dokt.diss.avtoref. -T., 1993. -44 b.
2. Karimov S. O'zbek tili funksional stilistikasi. Samarqand. 2010, 190 bet.
3. Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2009.
4. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, O'qituvchi, 1995.
5. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 1995.
6. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. -T.; O'qituvchi, 1992, 160 bet.
7. Bekjonov R. Yadro fizikasi.-T.: O'qituvchi, 1995. 71-75- 6.